

Boxonova Nilufar Saidmaxmud qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: nilufarboxonova@gmail.com

+998931513314

Mirzaolimov Mirzohid Mirzavaliyevich
Namangan davlat universiteti
Umumtibbiy fanlar kafedrası mudiri, PhD
E-mail: mirzohid_0421@mail.ru

+998974403343

BOSHLANG‘ICH MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA KO‘RISH QOBILIYATINI BAHOLASH BO‘YICHA SO‘ROVNOMA NATIJALARINING TAHLILI

Annotatsiya: Ko‘rish qobiliyati bolaning umumiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Darzlarni o‘zlashtirish, kitob o‘qish, yozish va vizual e‘tibor talab qiladigan boshqa faoliyatlarda ko‘rishning yaxshi bo‘lishi muhim sanaladi. Ushbu tadqiqot boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar orasida ko‘rish qobiliyati muammolarini erta aniqlashga qaratilgan so‘rovnoma natijalariga asoslangan.

Kalit so‘zlar: ko‘rish qobiliyati, ko‘zlarning noto‘g‘ri joylashuvi, tasvirlarning xiralashishi, diqqat, diplopiya

АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ОПРОСА ПО ОЦЕНКЕ ЗРЕНИЯ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: Зрение играет важную роль в общем развитии ребенка. Хорошее зрение имеет решающее значение для усвоения учебного материала, чтения, письма и других видов деятельности, требующих визуального внимания. Данное исследование основано на результатах опроса, направленного на раннее выявление проблем со зрением среди детей младшего школьного возраста.

Ключевые слова: зрение, неправильное положение глаз, размытость изображений, внимание, диплопия.

ANALYSIS OF SURVEY RESULTS ON VISION ASSESSMENT IN PRIMARY SCHOOL-AGED CHILDREN

Abstract: Vision plays a crucial role in a child's overall development. Good eyesight is essential for learning, reading, writing, and other activities that require visual attention. This study is based on the results of a survey aimed at the early detection of vision problems among primary school-aged children.

Keywords: vision, improper eye alignment, blurred images, attention, diplopia.

Kirish

Bolalar ko‘rish qobiliyati ularning umumiy rivojlanishi, ta’lim jarayonida muvaffaqiyat qozonishi va ijtimoiy moslashuvi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘rish muammolari bolaning o‘qish, yozish, yozuv taxtasidagi matnlarni ko‘rish, jismoniy faollik va ijtimoiy muloqotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [1]. Shu sababli, boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda ko‘rish qobiliyatining holatini baholash va erta tashxis qo‘yish muhim profilaktik choralar hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar orasida refraksiya nuqsonlari, ambliopiya (“dangasa ko‘z”), strabizm (ko‘z qisiqligi) va boshqa ko‘rish buzilishlari keng tarqalgan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, maktab yoshidagi bolalarning 12–15% i ko‘rish qobiliyati bilan bog‘liq muammolarga ega, lekin ularning aksariyatida bu muammolar erta aniqlanmaydi [2]. Ko‘plab bolalar darslarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelgan bo‘lsa-da, muammo ko‘rish bilan bog‘liq ekanligi kech aniqlanadi [3].

Ko‘rish qobiliyatini baholash uchun so‘rovnomalar, oftalmologik tekshiruvlar va texnologik skrining usullaridan foydalanish mumkin. Ayniqsa, ota-onalar va o‘qituvchilar uchun maxsus so‘rovnomalar bolalardagi ko‘rish muammolarini dastlabki bosqichda aniqlashda samarali usul hisoblanadi [4]. Ushbu tadqiqot boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar orasida ko‘rish qobiliyatini baholash, muammolarni erta aniqlash va profilaktik choralarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – bolalarning ko‘rish qobiliyatini baholash uchun so‘rovnoma natijalarini tahlil qilish va olingan ma’lumotlarga asoslanib oftalmologik

profilaktika bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ushbu ish orqali ko'rish muammolari va ularning bolalarning ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganiladi hamda erta tashxis va davolashning ahamiyati yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalik davrida ko'rish tizimi hali to'liq shakllanmagan bo'lganligi sababli, erta aniqlangan nuqsonlar muvaffaqiyatli davolanishi mumkin [1]. Masalan, ambliopiya ("dangasa ko'z") erta aniqlanganda muvaffaqiyatli tuzatilishi mumkin, ammo kechikish doimiy ko'rish yo'qotilishiga olib kelishi mumkin [5]. Ko'rish muammolari bo'lgan bolalar dars materiallarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Tadqiqotlarga ko'ra, miyopiya, gipermetropiya va astigmatizm kabi muammolar maktab yoshidagi bolalarda o'qish tezligi va matnni tushunish qobiliyatini pasaytiradi [3]. Shu sababli, erta ko'rish skriningi bolalarning akademik yutuqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bolalar orasida ko'rish muammolarini aniqlashda ota-onalar va pedagoglar uchun mo'ljallangan so'rovnomalar samarali vosita hisoblanadi [4]. So'rovnomalar orqali bolalarning ko'rish bilan bog'liq shikoyatlari, odatlari va xulq-atvoridagi o'zgarishlar aniqlanishi mumkin. So'nggi yillarda avtomatlashtirilgan skrining dasturlari va mobil ilovalardan foydalanish orqali bolalar ko'rish qobiliyatini baholash imkoniyatlari kengaymoqda [6].

Ko'rish nuqsonlari bo'lgan bolalar ko'pincha sinfdagi yozuvlarni o'qishda qiynaladilar, bu esa ularning diqqatini jamlash qobiliyatiga ta'sir qiladi [7]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, miyopiyaga ega bolalar dars davomida 30% kamroq e'tibor jamlashadi. Ko'rish buzilishlari bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni pasaytirishi va ijtimoiy muloqotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'quvchilar orasida o'tkazilgan so'rovnomalar shuni ko'rsatadiki, ko'zoynak taqadigan bolalar ko'pincha o'zlarini noqulay his qiladilar, bu esa ijtimoiy faollikka ta'sir qiladi [8].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot doirasida o'qituvchilar va o'quvchilar orasida ko'rish bilan bog'liq muammolarni baholash uchun maxsus ishlab chiqilgan so'rovnoma o'tkazildi. Ishtirokchilar boshlang'ich sinf o'quvchilaridan iborat. So'rovnoma 12 ta savoldan

iborat bo'lib, bolalarning uzoqni yoki yaqinni ko'ra olishi, ko'zning charchashi, bosh og'rig'i va boshqa alomatlar aniqlanishiga yo'naltirilgan.

Bolalar uchun ko'rishni tekshirish so'rovnomasi

Savollarni bolaga sodda va tushunarli tarzda beriladi. Bolalar javoblarni «Ha» yoki «Yo'q» shaklida belgilaydi.

1. Kitobni oddiy masofada (30–40 sm) ushlab o'qish qiyinmi?
2. Kitob yoki daftardagi yozuvlarni ko'rish uchun ularni ko'zga juda yaqin olib kelishga to'g'ri keladimi?
3. Matndagi harflar ba'zida xiralashib yoki bir-biriga qo'shilib ketadimi?
4. Sinf doskasiga qaraganda ko'zlaringni qisib qaraysanmi?
5. Sinfning orqa qatorida o'tirganda doskadagi yozuvlarni o'qish qiyinmi?
6. Uzoqdagi yozuvlar (ko'cha belgilari, reklama taxtalari)ni aniq ko'rish uchun ularga yaqinlashishga to'g'ri keladimi?
7. Televizor ko'rgandan yoki planshet o'ynagandan keyin ko'zlaring toliqdimi?
8. Ekran bilan ishlagandan so'ng ko'zlaring yoshlanadimi, qizaradimi yoki qichishadimi?
9. Kompyuter oldida ishlagandan so'ng boshing og'riganini sezganmisan?
10. Ko'zlaring qichimasada, tez-tez ularni uqalaysanmi?
11. Biror narsani aniq ko'rish uchun ba'zan bir ko'zingni yumib qaraysanmi?
12. Biror narsani ushlamoqchi bo'lganingda, masofani noto'g'ri baholab, qo'ling bo'sh ketadimi?


So'rovnomani baholash mezonlari quyidagicha:

- 0–2 ta “Ha” javobi – ko'rish qobiliyati yaxshi.
- 3–5 ta “Ha” javobi – bola ko'rishida muammolar boshlanishi mumkin.
- 6 va undan ortiq “Ha” javobi – shoshilinch tibbiy ko'rik zarur [9].

Natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot davomida 200 dan ortiq o'quvchining natijalari qayd etildi. Pedagoglar va o'quvchilar bergan javoblar asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- Ko‘rishi yaxshi deb baholangan bolalar soni 1-sinflarda 75.3%, 2-sinflarda 68.1%, 3-sinflarda 72.7%, va 4-sinflarda 71.9%ni tashkil etdi. Barcha sinflarda taxminan 70% bolalarda jiddiy ko‘rish muammolari kuzatilmagan, ammo muntazam oftalmologik tekshiruvlar tavsiya etiladi.
- Ko‘rishi yomon (6 yoki undan ortiq ball olgan) bolalar soni 1-sinflarda 9.3%, 2-sinflarda 12.1%, 3-sinflarda 11.4% 4-sinflarda 12.5% ni tashkil etdi.



Rasm. Ko‘rish bo‘yicha so‘rovnoma natijasi

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolalarning taxminan 10–12% i jiddiy ko‘rish muammolariga ega, bu esa ularni oftalmologga ko‘rsatish zaruriyatini anglatadi. 30% dan ortiq bolalar esa ko‘rish qobiliyati bilan bog‘liq qiyinchiliklarga ega bo‘lishi mumkin va ularning holatini kuzatish tavsiya etiladi. 1-sinf o‘quvchilari orasida ko‘rish qobiliyati yaxshi bo‘lgan bolalar ulushi eng yuqori (75.3%), bu esa ko‘rish muammolari yoshi o‘tishi bilan ortib borishi mumkinligini ko‘rsatadi. 4-sinf o‘quvchilarida esa ko‘rish yomon bolalar ulushi eng yuqori (12.5%), bu esa ta‘lim jarayonida ko‘z zo‘riqishi ko‘payishi mumkinligidan dalolat beradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich maktab o'quvchilarining taxminan 10–12% i ko'rish bilan bog'liq jiddiy muammolarga duch kelmoqda, bu esa oftalmologik tekshiruvlarning muntazam o'tkazilishini ta'minlash zarurligini anglatadi. 70% ga yaqin bolalarda jiddiy muammo aniqlanmagan bo'lsa-da, 30% bolalarda ko'rish muammolari rivojlanish xavfi bor va ularni muntazam kuzatib borish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Williams, C., et al. (2019). *Amblyopia Detection and Treatment in Early Childhood*. British Journal of Ophthalmology.
2. WHO. (2022). *Global Vision Impairment Statistics and Prevention Strategies*. World Health Organization Report.
3. Rosenfield, M. (2020). *Myopia Progression in Schoolchildren: A Review*. Optometry and Vision Science
4. Johnson, R. D., et al. (2020). *The Role of Parents in Early Vision Screening: A Systematic Review*. Vision Research.
5. American Academy of Ophthalmology. (2021). *Pe-diatric Vision Screening Guidelines*.
6. Lingham, G., et al. (2021). *Advancements in Digital Vision Screening for Children*. Clinical Ophthalmology
7. Gomes-Neto, M., et al. (2018). *Impact of Vision Impairment on Learning in School-Aged Children*. Journal of Pediatrics.
8. Sharma, A., et al. (2020). *Social and Emotional Impact of Refractive Errors in Children*. International Journal of Ophthalmology.

9. Болдинова О.Г., Иванова Е.А., Маркова Н.Ф., Антонова С.Л., Складнева В.М.
"Методика развития зрительного восприятия детей с нарушениями зрения
различных возрастных групп". ФГБНУ "ИКП РАО", Москва, 2022.